**O‘QUV DASTUR PASPORTI**

*O‘quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta’lim muvofiqlashtiruvchi kengashning _2024 yil “06” iyul № MMO-111-2024sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.*
*Amal qilish muddati 2026 yil gacha*

| | |
|---|---|
| **Ta’lim muassasasi nomi** | Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi |
| **Kafedra/ bo‘lim** | Pulmonologiya klinik allergologiya kursi bilan |
| **O‘quv dastur nomi** | *«KLINIK PULMONOLOGIYANING ASOSLARI »* |
| **O‘qish turi** | Mavzuviy malaka oshirish |
| **O‘quv dastur muallifi/ mualliflari** | Ubaydullaeva N.N., Ubaydullaev A.M., Tashmetova G.T., Tashmetov X.M. Assistant Fatxullayev A.X |
| **Siklning umumiy soati** | 144 kredit |

**Siklda dars beradigan o‘qituvchi va trenerlar**

| | | | |
|---|---|---|---|
|  |  |  |  |
| t.f.d, professor, kafedra mudiri Ubaydullaeva N.N | PhD t.f.n., dotsentTashmetova G. T. | PhD t.f.n., dotsent Tashmetova X. M. | Assistent Fatxullaev A.X. |

| | |
|---|---|
| **Maqsad** | Pulmonologiya sohasidagi nazariy bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash - mavjud standartlar va protokollarga asoslanib dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillari,shuningdek tibbiyot huquqi, sog‘liqni saqlash muassasalarining moliyaviy- xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik va boshqa dolzarb masalalar bo‘yicha nafas a’zolari kasalliklarini, ayniqsa, ijtimoiy-gigiyenik ahamiyatga ega kasalliklarni erta aniqlash, zamonaviy tashhisot, davolash chora-tadbirlarini to‘g‘ri taktikasini tanlash, pulmonologiyaning dolzarb masalalari bo‘yicha tasavvurlarga ega bo‘lib, amaliyotda joriy qilish xolatida tayyorlash. |
| **Siklga taklif qilingan mutaxasisslar - kontingent** | O‘quv dastur statsionar, ambulatoriya, sanatoriya- profilaktoriya va boshqa tibbiy Davlat va nodavlat muassasalari pulmonologlari, umumiy amaliyot shifokorlari va boshqa tor mutaxasislari uchun mo‘ljallangan. |

| | |
|---|---|
| **Sikl vazifalari** | tinglovchi shifokorlarga o‘quv dasturlarini to‘liq o‘zlashtirishga yordam beruvchi muntazam, tizimli, izchilva boshqariladigan o‘quv jarayonini tashkil etish. O‘quv dasturini o‘zlashtirgan tinglovchi dasturda ko‘rsatilgan yo‘nalish bo‘yicha zamonaviy ilmdan va nazariy qarashlardan, ilg‘or amaliy bilim va ko‘nikmalardan xabardor bo‘lish. O‘z navbatida tinglovchi o‘zlashtirgan bilimlardan foydalanib, o‘z soxasida zamon talablari asosida faoliyat ko‘rsata olish.<br>Ushbu dastur bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rgan tinglovchi malaka oshirish tizimining moxiyati va uning zarurat ekanligi, o‘z malakasini uzluksiz ravishda oshirishga o‘qish davomida uqtirish.<br>1. Amaliyotda sog‘liqni saqlash bo‘yicha qonunlarbo‘yicha bilimini, amaldagi respublika direktiv xujjatlarini va pulmonologiya xizmatini tashkil qilishda qo‘llay bilish;<br>2. Mutaxassilarni etiopatogenetik, yoshiga qarab o‘sib kelayotgan organizmning hayotiga xavf soluvchi simptomlar, diagnostika kriteriylari va og‘irlik xolatini baholash, pulmonologiya asosiy tamoillarini takomillashtirish;<br>3. Amaliy ko‘nikmalarni va zamonaviy tashhisot uslublarini qo‘llashni va keyingi davolash taktikasini va transportirovkani taminlash;<br>4. Pulmonologiya amaliyotida qo‘llaniladigan zamonaviy preparatlarning farmakoterpevtik asosini, ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarini yangilash;<br>Pulmonologiya amaliyotida bronxit, bronxial astma va upkaning surunkali obstruktiv kasallliklarida yordam ko‘rsatishda tashkiliy va davolashdagi kunikmalarni takomillashtirish;<br>5. Tibbiy etika va deontologiya asoslarini bilish. Tinglovchilar uchun siklning tegishli dasturini chuqur va yangilangan to‘liq o‘qitishga imkon beruvchi doimiy, tizimli, izchil va boshqariladigan o‘quv jarayonini tashkil etish |
| **Sikl tarkibi** | Modul I. Bronx-upka patologiyasinianiklashda Funksionaldiagnostika<br>Modul II. Nafasa’zolari kasalliklarida viruslarning o‘rni.<br>Modul III. Pnevmoniya (zotiljam)<br>Modul IV. O‘pkaning interstitsialkasalliklari<br>Modul V. Bronxial astma<br>Modul VI. O’SOK(bronxit, bronxiolit, mukovissidoz, bronxoektazlar)<br>Model VII. Pulmonologiyada shoshilinch holatlar |
| **O‘qish bazalari** | **Ibn Sino nomli shahar 1-sonli klinik shifoxonasi**<br> |

| | |
|---|---|
| **Simulyatsion asbob/uskunalar** |  |